

Surxondaryo viloyati hokimi Turkiyalik olimlar guruhini qabul qildi



Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Turkiyaning "Livagro" firmasining ta'sischisi, oliy toifali agronom Bilol Talmach boshchiligidagi olimlar guruhini qabul qildi.

Uchrashuvda "Livagro" firmasining paxtachilik va urug'chilik sohasida olib borayotgan tadqiqotlari, erishgan natijalari, yaratilgan yangi navlar hamda yetishtirish texnologiyasi bo'yicha taqdimotlari bilan tanishildi.

Firma faoliyati bo'yicha taqdimot bilan tanishilib, muzokaralar yakunida Surxondaryo viloyatida klasterlar bilan hamkorlikda 10 ming hektar maydonda zamonaviy paxta yetishtirish texnologiyasiga asosan hosildor paxta navlarini yetishtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borishga kelishildi. Kelgusida tajriba o'zini oqlab, ko'zdangan maqsadga erishilsa, Turkiya firmasi bilan hamkorlikda paxta yetishtirish ishlari yo'lga qo'yilishi ta'kidlandi.

"Livagro" firmasi 2003 yildan buyon Turkiyada urug' ishlab chiqarish, tadqiqot va rivojlantirish sohasida faoliyat yurituvchi biotexnologik firma bo'lib, bir nechta davlatda tajriba ishlarini olib borgan. Firma tomonidan taklif etilayotgan paxta yetishtirish texnologiyasi orqali urug' ekishdan hosil yig'ishtirib olishgacha bo'lgan jarayonlar to'liq texnikalar yordamida amalga oshiriladi va o'rtacha 60 sentner hosildorlikka erishish maqsad qilingan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)